



# XORAZM VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2020- yil 1- noyabr holatiga ko'ra  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



## Mamlakatimizda oxirgi yillarda tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatilayotgan e'tibor

*Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.*

*Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.*


*Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida "Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi" faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.*

*Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.*

*Korxona va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2020- yil 1- noyabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.*

## Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni


*( 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)*



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rniда, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyatga tadbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

## Korxona va tashkilotlar soni

*(2020- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)*



### **Yuridik shaxs:**


Yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatları yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vegar va javobgar bo'la oladigan tashkilot **yuridik shaxs** hisoblanadi.

## Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalarini soni


(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



Mas'uliyati cheklangan jamiyat



Oilaviy korxona



Unitar korxona



Xususiy korxona




Aksiyadorlik jamiyat




Boshqa korxonalar

*mas'uliyati cheklangan jamiyat  
birlik*



*xususiy korxona  
birlik*




### Mas'uliyati cheklangan jamiyat


Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyatni mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlar qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (1- noyabr holatiga ko'ra)



## Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



## Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



### Aksiyadorlik jamiyati:


Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat – aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi; – aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Aksiyalar haqini batamom to'lamagan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha, o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyati ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.


## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(yanvar-oktabr oylarida, birlikda)




## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-oktabr oylarida, birlikda)



## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi


(2020-yil yanvar-oktabr oylarida, umumiy sonidagi ulushi)



2020-yilning yanvar-oktabr oylarida 4 081 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 2 003 ta, oilaviy korxonalar – 1 198 ta, xususiy korxonalar – 730 ta, muassasalar – 42 ta va boshqalar – 108 tani tashkil etdi.

## Oilaviy korxonalar soni

*(1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)*



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra 3 725 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 312 taga yoki 54,4 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 3 416 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 099 taga yoki 47,4 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yil yanvar-oktabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 1 198 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 58 taga yoki 5,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni

*(1-noyabr holatiga ko'ra, birlikda)*

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2020- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra 10 141 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 984 taga yoki 24,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 9 219 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 492 taga yoki 19,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yil yanvar-oktabr oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2 003 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 148 taga yoki 7,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.




## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

(2020- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)




## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



## Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni

*(1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)*




## Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni

*(1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)*

	2016- yil	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil
Jami	34	51	69	126	164
shu jumladan:					
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	2	2	3	19	22
Sanoat	23	31	43	56	64
Qurilish	3	4	3	15	23
Savdo	3	8	11	22	32
Tashish va saqlash	0	1	2	4	1
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	3	3	3	5	9
Axborot va aloqa	0	0	0	1	1
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	0	0	1	2	5
Boshqa turlar	0	2	3	2	7

## Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (1-noyabr holatiga ko'ra, birlikda)




## Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni (1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

	2016- yil	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil
<b>Jami</b>	<b>5 344</b>	<b>5 804</b>	<b>6 200</b>	<b>7 727</b>	<b>9 219</b>
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	589	635	729	942	1 430
Sanoat	929	1 054	1 135	1 334	1 464
Qurilish	891	928	977	1 179	1 272
Savdo	1 639	1 766	1 886	2 439	2 875
Tashish va saqlash	374	423	454	515	573
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	171	186	180	228	249
Axborot va aloqa	83	89	78	92	112
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	63	81	102	137	168
Boshqa turlar	605	642	659	861	1 076

## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni

(1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)




## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni


(1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil
Jami	809	1 185	2 317	3 416
shu jumladan:				
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	98	112	322	451
Sanoat	224	331	616	919
Qurilish	15	19	26	33
Savdo	163	242	579	1 008
Tashish va saqlash	5	8	13	23
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	196	338	578	686
Axborot va aloqa	12	11	21	22
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	7	13	20	39
Boshqa turlar	89	111	142	235


## Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni (2020- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni (1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



**Tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan  
korxona va tashkilotlar soni  
(2020- yil 1-noyabr holatiga ko'ra, birlikda)**



Tumanlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar sonining asosiy qismi Urganch shahri (4 675 ta), Urganch tumani (2 328 ta), Xiva shahri (1 814 ta), Xonqa tumani (1 669 ta) va Xiva tumani (1 650 ta) hissasiga to'g'ri keladi.


## Tumanlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni (2020- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	<i>shundan:</i>	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
Xorazm viloyati	164	107	57
Urganch sh.	52	38	14
Xiva sh.	17	11	6
<b>tumanlar:</b>			
Bog'ot	8	7	1
Gurlan	5	4	1
Qo'shko'pir	6	4	2
Urganch	22	8	14
Hazorasp	2	1	1
Tuproqqal'a	6	2	4
Xonqa	7	4	3
Xiva	11	5	6
Shovot	11	9	2
Yangiariq	6	4	2
Yangibozor	11	10	1

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Urganch shahrida 52 tani (umumiyligi miqdorida ulushi 31,7 %), Urganch tumanida 22 tani (13,4 %), Xiva shahrida 17 tani (10,4%), Xiva tumanida 11 tani (6,7 %), Yangibozor tumanida 11 tani (6,7 %) hamda Shovot tumanida 11 tani (6,7 %) tashkil etadi.

## Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni

*(2020- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)*




2020- yil 1- noyabr holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Urganch shahri (22,8 %), Urganch tumani (10,8 %), Xiva shahri (8,8 %), Xiva tumani (8,2 %), Xonqa tumani (7,5 %), Qo'shko'pir tumani (6,9 %), Gurlan tumani (6,4 %), Yangiariq tumani (5,6 %), Bog'ot tumani (5,5 %), Shovot tumani (5,2 %), Hazorasp tumani (5,2 %), Yangibozor tumani (4,9 %) va Tuproqqal'a tumani (2,2 %) hissalariga to'g'ri keladi.


## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni

*(2020- yil yanvar-oktabr oylarida, birlikda)*


2020- yil yanvar-oktabr oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Urganch shahri (16,1 %), Qo'shko'pir tumani (9,8 %), Urganch tumani (9,4 %), Xiva shahri (8,3 %), Yangibozor tumani (8,3 %), Gurlan tumani (7,8 %), Xiva tumani (7,1 %), Bog'ot tumani (7,0 %), Xonqa tumani (7,0 %), Shovot tumani (5,7 %), Yangiariq tumani (5,6 %), Hazorasp tumani (4,8 %) va Tuproqqal'a tumani (3,1 %) hissasiga to'g'ri keladi.



## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining tumanlar kesimidagi soni (2020- yil 1-noyabr holatiga ko'ra, birlikda)




## Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning tumanlar kesimidagi soni (2020- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



2020- yil 1- noyabr holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Urganch shahri (21,9 %), Urganch tumani (10,2 %), Xiva shahri (9,3 %), Xiva tumani (8,6 %), Hazorasp tumani (7,7 %), Yangiariq tumani (7,4 %), Gurlan tumani (6,8 %), Xonqa tumani (6,1 %), Qo'shko'pir tumani (6,1 %), Bog'ot tumani (5,6 %), Shovot tumani (4,4 %), Tuproqqa'l'a tumani (3,3 %) va Yangibozor tumani (2,6 %) hissasiga tegishli.

## Tumanlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning qo'shma korxona va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi

*(2020- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)*



2017-2021 yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - **xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish** hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqtiga-vaqtiga bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrinda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

**Kichik korxona va mikrofirmalar** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 275-sod qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

## Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar bevosita Davlat statistika qo'mitasining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Statistik registrlarni  
yuritish bo'limi  
Tel.:62 224-65-11**